



THE ROLE OF URGENCH STATE UNIVERSITY NAMED AFTER ABU RAYHAN BERUNI IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE IN UZBEKISTAN (IN THE YEARS OF INDEPENDENCE)

Khurmatulla Tukhtaboyev

Independent Researcher at Karshi State University

Karshi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Urgench State University, science, personnel training, first years of independence, scientific schools.

Received: 15.09.25

Accepted: 16.09.25

Published: 17.09.25

Abstract: The article analyzes the role of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni in the development of science in Uzbekistan during the first years of independence. The university's scientific potential, the formation of scientific schools, its initial role in training scientific personnel, and its significance in the socio-cultural life of the region are covered on the basis of primary sources, statistical indicators, and archival documents.

O'ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETINING O'RNI (MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA)

Xurmatulla To'xtaboyev

Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Qarshi, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Urganch davlat universiteti, ilm-fan, kadrlar tayyorlash, mustaqillikning dastlabki yillari, ilmiy maktablar.

Annotatsiya: Maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining O'zbekiston ilm-fani taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Universitetning o'sha davrdagi ilmiy salohiyati, ilmiy maktablarning shakllanishi, ilmiy kadrlar tayyorlashdagi dastlabki bosqichdagi roli hamda hududiy ijtimoiy-madaniy hayotdagi ahamiyati asosiy manbalar, statistik ko'rsatkichlar va arxiv hujjatlari asosida yoritiladi.

РОЛЬ УРГЕНЧСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ В РАЗВИТИИ НАУКИ В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ ГОДОВ НЕЗАВИСИМОСТИ)

Хурматулла Тухтабоев

Независимый исследователь

Каршинского государственного университета

Карши, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ургенчский государственный университет, подготовка кадров, первые годы независимости, научные школы.	Аннотация: В статье анализируется роль Ургенчского государственного университета имени Абу Райхана Беруни в развитии науки Узбекистана в первые годы независимости. На основе первоисточников, статистических показателей и архивных документов освещаются научный потенциал университета, становление научных школ, его начальная роль в подготовке научных кадров, значение в социально-культурной жизни региона.
---	--

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng mamlakatda ilm-fan va ta’lim sohasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, ilmiy kadrlar tayyorlash, ilmiy maktablarni shakllantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha qator islohotlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilm-fanni rivojlantirishda oliy ta’lim muassasalarining o‘rniga alohida e’tibor qaratib, quyidagicha ta’kidlagan edi: “Ilm-fan – taraqqiyotimizning bosh omili, oliy ta’lim va ilmiy muassasalarning vazifasi esa zamonaviy bilim va innovatsiyalar asosida xalqimizning hayot sifatini yuksaltirishdir[1]”.

Ana shunday muhim jarayonlarda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti (keyingi o‘rinlarda UrDU) o‘ziga xos o‘rin tutadi. Xorazm vohasining yirik ilmiy va ta’lim markazi sifatida UrDU mustaqillik yillarida ko‘plab ilmiy yo‘nalishlarda yutuqlarga erishdi, yuzlab doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, xalqaro ilmiy loyihalarda faol ishtirok etildi.

Asosiy qism. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mazkur universitet viloyatdagi boshqa muassasa va korxonalarda yuqori malakali mutaxassislariga bo‘lgan talabni qondirish maqsadida malakali ilmiy–pedagogik kadrlar tayyorlashning barcha shakllaridan unumli foydalanishga harakat qildi[2].

Jumladan, ilmiy faoliyatni boshlayotgan iqtidorli yoshlar bir yil muddatga stajyor-tadqiqotchi lavozimiga tanlov asosida qabul qilindi va har yili 10 nafar stajyor-tadqiqotchi universitet kafedralari hamda Respublikadagi yetakchi oliy o‘quv yurtlarida tayyorgarlikdan o‘tdi.

1995-1996-o'quv yilida 70 ga yaqin xodimlar UrDU hamda Respublikadagi boshqa oliygohlar qoshidagi doktorantura, kunduzgi va sirtqi aspirantura shakllarida, shuningdek, mustaqil ravishda ilmiy izlanishlar olib borishdi[2].

Mazkur o'quv yilida universitetning 10 dan ortiq xodimi doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy faoliyat olib borishib, ulardan ayrimlari doktoranturaga chiqmasdan, ta'lim-tarbiya jarayonidan ajralmagan holda, katta ilmiy xodim sifatida tadqiqot ishlarini amalga oshirishdi[2].

Universitet aspiranturasiga qabul tanlov asosida amalga oshirildi. Aspirantlar asosan oliy o'quv yurtlarini imtiyozli tamomlagan iqtidorli yoshlar orasidan saralab olindi. Ilmiy izlanishlar olib borishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratildi.

Aspirantlarga katta tajribaga ega bo'lgan bir nafar akademik, 20 dan ortiq fan doktori va bir nechta fan nomzodlari ilmiy rahbarlik qilishdi[2].

Joriy yili aspiranturada tahsil olgan ikki nafar xodim nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Har ikkala dissertatsiya o'zbek tilshunosligi va folklorshunoslikning dolzarb mavzulariga bag'ishlangan bo'lib, kafedralarning umumiy yo'nalishiga hamohang olib borilgan edi.

"Antronomimlar oynomalari" va "Xorazm hamda Qoraqalpog'iston dostonlaridagi muammolar"ga bag'ishlangan mazkur ilmiy ishlarga fakultet professorlari J. Do'simov va X. Abdullayev singari yetuk olimlar rahbarlik qildilar[3].

Aspirantlar, katta ilmiy xodimlar, stajyor-tadqiqotchilar va klinik ordinatorlar muntazam ravishda kafedra yig'ilishlarida shaxsiy ish rejalarining bajarilishi haqida hisobot berib kelishdi. Shuningdek, aspirantlar va mustaqil izlanuvchilar uchun "Falsafa", "Bozor iqtisodiyoti", "Informatika va XT", "Nemis tili", "Fransuz tili", "Ingliz tili" fanlaridan o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi.

Xorazm tarixi laboratoriyasi, ekologiya va tuproqshunoslik tarmoq ilmiy tekshirish laboratoriyasi, ko'p ming nusxadan iborat kitob fondiga ega kutubxona, tipografiya, hisoblash markazi va fizika laboratoriyasi aspirantlar ixtiyorida faoliyat yuritdi[2].

Universitetda yosh olimlar va talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarida ishtirok etishlariga alohida e'tibor qaratildi. Universitet kafedralaridagi seminarlarda aspirant va tadqiqotchilarning chiqishlari ta'minlanib, talabalar ham tadqiqot ishlariga jalb etildi.

Mazkur o'quv yilida universitetda 45 ta ilmiy to'garak faoliyat yuritib, bu to'garaklarda 600 ga yaqin talaba ishtirok etdi. 1996 yilda o'tkazilgan "O'zbekiston — Vatanim mening" anjumanida talabalar faol ishtirok etib, ma'ruzalari bilan chiqish qildilar.

Yosh olimlarning ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, natijalarini baholash va rag'batlantirish maqsadida, universitet yosh olimlar kengashi tomonidan yosh olimlar ilmiy

ishlari tanlovi tashkil etildi. G'olib deb topilgan 1–3 o'rin sohiblari pul mukofoti bilan taqdirlandi.

Universitet talabalari, aspirantlari va yosh olimlarining ilmiy ish sifati ko'rsatkichlaridan biri — ularning universitet, viloyat va Respublika miqyosidagi anjumanlarda ma'ruzalar bilan ishtirok etishidir[2].

Jumladan, universitet yosh olimlari ma'ruzalari universitet miqyosida o'tkazilgan A. Temurning 660 yilligiga bag'ishlangan anjumanlarda ham e'tirof etilgan[2].

Urganch davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlarining rivojlanishini, albatta, ilmiy aloqalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq UrDU professor-o'qituvchilari va ilmiy markazlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi institutlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan edi. Har bir fakultet va kafedra o'z ilmiy yo'nalishiga mos holda respublika miqyosidagi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda faoliyat olib bordi[4].

Jumladan, o'zbek filologiyasi fakulteti O'zbekiston Fanlar akademiyasi tarkibidagi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti, Tilshunoslik instituti, Hamid Sulaymon nomidagi Qo'lyozmalar instituti, shuningdek, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi bilan uzviy aloqalar o'rnatdi[5]. Ushbu hamkorliklar, asosan, ilmiy-nazariy yo'nalishda, ya'ni adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalarini chuqur ilmiy tahlil qilish, qo'lyozmalarni o'rganish va yangi ilmiy xulosalar ishlab chiqishga qaratilgan edi.

Bu hamkorliklar nafaqat UrDU ilmiy salohiyatining oshishiga, balki respublika miqyosida filologiya va tarix fanlari bo'yicha yangi ilmiy natijalarning yuzaga kelishiga ham asos bo'lib xizmat qildi.

Fakultetning ko'plab professor-o'qituvchilari Fanlar akademiyasi institutlari olimlari rahbarligida ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Bu hamkorlik nafaqat ilmiy tajriba almashish, balki ilmiy salohiyatni oshirishga ham xizmat qildi. Masalan, 1995-yilning sentyabrida professor S. Ruzimboev Adabiyot instituti ilmiy xodimi Mamadqul Jo'raevning doktorlik dissertatsiyasiga opponent sifatida ishtirok etdi. Shuningdek, u mazkur institutda uch oylik malaka oshirish kursini o'tab, institutning folklor bo'limi bilan hamkorlikda o'z monografiyasini muvaffaqiyatli yakunladi[5]. Bu kabi misollar Urganch davlat universiteti olimlarining ilmiy salohiyati mustaqillikning dastlabki yillaridayoq poytaxtdagi yirik ilmiy markazlar bilan uzviy hamkorlikda shakllanganini yaqqol ko'rsatadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Urganch davlat universiteti olimlari va tadqiqotchilari O'zbekiston Fanlar akademiyasi institutlari bilan uzviy hamkorlikda faoliyat olib bordilar. Bu jarayon ko'plab ilmiy natijalar berib, universitetning ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qildi.

Masalan, professor Z. Do'simov Tilshunoslik instituti huzuridagi o'zbek dialektologiyasi bo'limining ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq "O'zbek xalq shevalari lug'ati" ko'p jildligining "Xorazm xalq shevalari" qismi ustida ish olib borib, uni nashrga tayyorladi[5].

Shuningdek, filologiya fakultetining ko'plab aspirant-tadqiqotchilari ilmiy faoliyatlarini O'zbekiston Fanlar akademiyasi institutlari bilan hamkorlikda amalga oshirdilar. Ular mavzularni muvofiqlashtiruvchi kengashlarda tasdiqlashdan boshlab, ilmiy maqolalar e'lon qilish, mutaxassislik bo'yicha minimal imtihon topshirish, tadqiqotlarini institut bo'limlarida muhokama qilish, ilmiy seminar va konferensiyalarda ma'ruza qilish, nihoyat, dissertatsiyalarini himoya qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarda Fanlar akademiyasi bilan bevosita bog'liq bo'ldilar.

Bundan tashqari, fizika-matematika fakulteti qoshidagi Funktsiyalar nazariyasi kafedrasida xodimlari O'zbekiston Fanlar akademiyasining Matematika instituti olimlari bilan birgalikda algebra yo'nalishida ilmiy tadqiqotlarni davom ettirdilar. Universitet olimlarining bir qismi ushbu institutda doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari ustida ilmiy izlanishlar olib bordilar.

Mazkur faktlar shuni ko'rsatadiki, UrDU ilmiy faoliyati mustaqillikning dastlabki yillaridayoq yirik ilmiy markazlar bilan hamkorlikda shakllanib, ilmiy kadrlar tayyorlash jarayonining uzviy qismiga aylangan.

Urganch davlat universiteti ilmiy faoliyatining mustaqillikning dastlabki yillarida rivojlanishi ko'plab ilmiy markazlar bilan hamkorlik orqali amalga oshirildi. Jumladan, fizika kafedrasida O'zbekiston Fanlar akademiyasining Yadro fizikasi va Fizika-texnika institutlari bilan yarim o'tkazgichlarning radiatsion fizikasi hamda kremniy-germaniy qattiq eritmalari xossalari o'rganish bo'yicha hamkorlik qildi.

Shuningdek, universitet tibbiyot markazi Respublikaning barcha 9 ta tibbiyot oliy o'quv yurtlari va 10 ta ilmiy-tadqiqot institutlari (pediatriya, endokrinologiya, immunologiya, mikrobiologiya, epidemiologiya, akusherlik va ginekologiya, ko'krak jarrohligi, kardiologiya va boshqalar) bilan yaqin ilmiy aloqalarni yo'lga qo'ydi[5].

Bu hamkorliklar UrDU ilmiy faoliyatining dastlabki yillarda faqat gumanitar va tabiiy fanlar bilan cheklanib qolmasdan, balki tibbiyot va texnika yo'nalishlarida ham kengayganini, ilm-fan integratsiyasining amaliy natija berganini ko'rsatadi.

Urganch davlat universitetining injener-texnika fakulteti huzuridagi "Qurilish texnologiyasi va konstruksiyalari" kafedrasida ham mustaqillikning dastlabki yillarida respublika ilmiy markazlari bilan samarali hamkorlik qilgan. Jumladan, O'zbekiston Fanlar akademiyasining M.T. Urazboev nomidagi Mexanika va inshootlarni seysmik mustahkamlash instituti bilan hamkorlikda muhim ilmiy natijalar qo'lga kiritildi[6].

1995-yilning oktabr oyida UrDU mutaxassislari ushbu institut olimlari bilan birgalikda yer osti portlashlarining seysmik ta'sirini o'rganish bo'yicha keng ko'lamli dala tajribalarini amalga oshirdilar. Tajribalar natijalari qayta ishlanib, keyingi yilda dala sharoitida sinovdan o'tgan obyektlar Toshkent texnika institutining seysmik platformasida laboratoriya sharoitida yana chuqur tekshirildi[6].

Mazkur ishlar O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, professor Ya.N. Muborakov rahbarligida olib borildi. Bu fakt universitetning dastlabki yillarda nafaqat gumanitar va tabiiy fanlarda, balki texnika va muhandislik sohalarida ham yirik ilmiy loyihalarda ishtirok etganini ko'rsatadi[6].

Xulosa. Xullas, mustaqillikning dastlabki yillarida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mamlakat ilmiy hayotida muhim o'rin egalladi. Universitet faoliyati Xorazm vohasida ilmiy kadrlar tayyorlash, yangi ilmiy maktablarni shakllantirish hamda yirik respublika ilmiy markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
2. O'z MA, 130-fond, 1-ro'yxat, 480-ish, 16-varaq
3. O'z MA, 130-fond, 1-ro'yxat, 480-ish, 22-varaq
4. Urganch davlat universiteti ilmiy hisobotlari (1991–2000). – Urganch, Arxiv fondi.
5. O'z MA, 130-fond, 1-ro'yxat, 480-ish, 25-varaq
6. O'z MA, 130-fond, 1-ro'yxat, 480-ish, 26-varaq